

ALEKSANDR FAYNBERG: QALBIDA O‘ZBEKISTON MUHABBATI JO‘SH URGAN SHOIR

Norboyeva Zuhra Alijon qizi

alidjanovnaaa999@email.com

**Uzbekiston Davlat jahon tillari
universiteti, Ingliz filologiya fakulteti**

Annotatsiya: Ushbu maqolada iste’dodli shoir Aleksandr Faynbergning hayoti va ijodi tahlil qilinadi. Uning adabiyotga qo‘shgan hissasi, she’riyatining asosiy mavzulari va badiiy xususiyatlari o‘rganiladi. Faynberg ijodi inson ruhiyatining eng chuqur qatlamlariga kirib borishi, umid, sevgi va taqdir mavzularini o‘ziga xos tarzda aks ettirishi bilan ajralib turadi. Maqolada shoirning o‘zbek adabiyoti va madaniyatiga bo‘lgan munosabati hamda uning she’rlari orqali jamiyatga ta’siri haqida fikr yuritiladi.

Kalit so‘zlar: Adabiyot, she’riyat, badiiy ijod, inson ruhiyati, umid, muhabbat, falsafiy mushohada, adabiy tahlil, poetik obrazlar, zamonaviy adabiyot.

Adabiyot – inson ruhining eng sirli tomonlarini ochib beruvchi sehrli olam. Ba’zan u hayot haqiqatlarini oynadek aks ettirsa, ba’zan esa yurakning eng nozik torlarini chertuvchi musiqaga aylanadi. Shoir va yozuvchilar o‘z asarlari orqali inson his-tuyg‘ularini ifodalab, jamiyat ma’naviyatining yuksalishiga katta hissa qo‘shadilar. Xuddi shunday rus tilida ijod qilgan bo‘lsa-da, qalbi o‘zbek bo‘lgan iste’dodli shoir Aleksandr Faynberg ham adabiyotning yorqin namoyandalaridan biri sifatida kitobxonlar qalbidan o‘chmas joy egalladi. Aleksandr Faynberg lirik-falsafiy yo‘nalishda ijod qilgan mashhur shoir hisoblanadi. Uning she’rlari inson ruhiyati, taqdir va umid haqida chuqur fikr yuritishga undaydi. 1960–1970-yillarda Toshkent adabiy muhiti bilan chambarchas bog‘langan Faynberg o‘z ijodi bilan ko‘plab

o'quvchilar qalbiga yetib borgan. Uning asarlari insoniy qadriyatlar va hayot falsafasini yoritib, chuqur ma'nosi bilan ajralib turadi. Faynbergning she'rlari shunchaki so'zlar jamlanmasi emas, balki ular inson qalbining chuqur hislarini aks ettiruvchi badiiy haqiqatdir. U tabiat, umid, fojia, sevgi va fidoiylilik mavzularini o'zining lirik satrlarida mahorat bilan tasvirlagan. Shoirning ijodi hayotning murakkab falsafiy jihatlarini o'z ichiga olgan bo'lib, har bir misrasi chuqur ma'no va ruhiy iztiroblarni aks ettiradi.

Aleksandr Faynbergning "Meni deya chekma iztirob" she'rida insonning hayotdagi ishonchi va matonati ulug'lanadi. Shoir qiyinchiliklarga qaramay, mag'rurlik bilan yashashni, umid bilan kelajakka intilishni madh etadi hamda she'rdagi tabiiy tasvirlar orqali inson ruhiyatining murakkab jihatlarini ochib beriladi. She'rning har bir bandida ruhiy qudrat va irodaning ifodasi yaqqol namoyon bo'ladi:

Meni	deya	chekma	iztirob,
Yashayapman	mag'rur,	qaddi	tik.
Yelkam	tutar	sobit	Ishonchim,
Yorug' kunlar qarshimda — tetik.			

Shoir o'zining mustahkam ishonch bilan yashayotganini ta'kidlaydi. Hayotning qiyinchiliklariga qaramay, mag'rur va qaddi tik yurishini ifodalaydi. U kelajakka ishonch bilan qaraydi, yorug' kunlarni oldinda ko'radi.

**Kengliklarda goh yomg'ir, shamol,
O'rlar bo'm-bo'sh dala o'tinchi.
Yuraginga bargsiz shoxlardan
Mo'ralaydi Umid sog'inchi.**

Bu bandda shoir hayotning qiyinchiliklarini, uning har doim ham barqaror bo'lmasligini tasvirlaydi. Yomg'ir va shamol – hayotdagi sinovlarni anglatadi. Ammo shoirning qalbida umid yashaydi. Hatto bargsiz shoxlardan ham umid mo'ralab turibdi.

**Ishonaman, umid uzilmas,
Zinalarda – hayotim izi.
Taqdirimni men — la bo‘lishar
Olis, achchiq Muhabbat hissi.**

Bu yerda inson hayotining izlari, uning o‘tgan yo‘li haqida so‘z yuritiladi. Shoir taqdir va muhabbatni bir-biriga bog‘lab, insonning hayotiy yo‘li qanday bo‘lishidan qat’i nazar, umid va sevgi hamisha mavjudligini ta’kidlaydi.

**Xusumatdan xoli dil toza,
Alam, hasrat sezinmas aslo.
Moviy ko‘kda tiniq yulduzim
Oydin yo‘lga boshlaydi, illo.**

She’rning yakuniy bandida shoir qalbining pokligini, hasad va adovatdan xoli ekanini ta’kidlaydi. Uning umidi va ishonchi – yo‘l ko‘rsatuvchi yulduz bo‘lib, uni hayotning yorug‘ yo‘liga boshlaydi. Ushbu keltirilgan she’rdan shuni anglashimiz mumkinki, she’r falsafiy ruhga ega bo‘lib, har bir insonning hayot yo‘li sinovlarga to‘la ekanini, ammo ishonch va umid bilan yashash insonni mag‘lubiyatsiz oldinga boshlashini anglatadi. Shoir inson qalbining ezgulik va poklik bilan to‘lishi kerakligini ham ta’kidlaydi. Natijada, bu she’r hayotiy tajribalar, iroda va optimizmning yorqin timsoli sifatida baholanadi.

Aleksandr Faynbergning ijodi o‘zbek va rus adabiyoti chorrahasida turgan noyob badiiy meros hisoblanadi. U o‘z she’rlari orqali inson ruhiyatining eng nozik jihatlarini, hayot falsafasini va umidning qudratini yoritib bergan. Uning “Meni deya chekma iztirob” she’ri insonning hayot sinovlariga bardoshli bo‘lishi, kelajakka ishonch va matonat bilan qarash zarurligini aks ettiradi. Shoirning ijodidagi tabiiy tasvirlar va ramziy ifodalar inson hayotining murakkab, ammo yorqin tomonlarini anglashga yordam beradi. Faynberg she’rlari chuqur falsafiy va badiiy mazmunga ega bo‘lib, ular o‘quvchini fikrlashga undaydi va uning ruhiyatiga ta’sir ko‘rsatadi. Shoir qalbining

yuksakligi, insoniyatga muhabbati va adabiyotga fidoyiligi bilan ajralib turadi. Uning she'rlari bugungi kunda ham kitobxon qalbidan joy olmoqda va abadiyat sari yo'l olgan ijodiy meros sifatida yashamoqda. Aleksandr Faynbergning ijodi nafaqat o'z davri, balki keyingi avlodlar uchun ham ilhom manbai bo'lib qoladi. Uning so'zlari yuraklarda jarang sochib, adabiyot osmonida o'chmas yulduz misol porlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Karimov, U. (2010). "O'zbek va rus adabiyotidagi falsafiy lirik yo'nalishlar." *O'zbek adabiyoti jurnali*, 45-52-betlar.
2. O'ralov, U. (2022). "Pedagog respublika ilmiy jurnali". O'zbek xalqining chin do'sti, tarjimon, shoir- Aleksandr Faynberg, 4, 745-746.
3. Oripov, A. (1999). "She'riyat va uning ma'naviy qadriyatlarimizdagi o'rni." *Tafakkur jurnali*, 23-29-betlar.
4. https://uz.wikipedia.org/wiki/Aleksandr_Faynberg
5. <https://n.ziyouz.com/portal-haqida/xarita/jahon-she-riyati/rus-she-riyati/aleksandr-faynberg-1939-2009>